



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIV TA‘LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O‘ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA
XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

**XALQARO ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**



2025-yil 18-oktabr



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O‘ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI VA XALQARO HAMKORLIK
MASALALARI**

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari

2025-yil 18-oktabr

Toshkent – 2025

METAFORANING SHE’RIY MATNLARDA AKS ETISHI THE REFLECTION OF METAPHOR IN POETIC TEXTS

10.52773/tsuull.conf.2025.18.10/PYNY3963

Yusupova Aziza Muhiddin qizi

Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat

o‘zbek tili va adabiyoti universiteti

2- kurs tayanch-doktaranti

azizaxonyusupova1996@gmail.com, 974428765

Annotatsiya. *Ushbu maqola, metaforalarning o‘ziga xos xususiyatlari, tasnifi, fikrlarning idrok etilishdagi vazifalari, metaforalarining she’riy matnlar tarkibida kelishidagi o‘ziga xosliklari va ularning ahamiyati borasidagi mulohazalar berilgan. She’riy asarlarni lingvistik tahlil qilish jarayonida ijodkor tilidan foydalanish orqali shoir mahoratini namoyon etadigan leksik birliklardan biri bo‘lgan metaforalarning emotsional-ekspressiv ifoda semalari qavariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular she’riy matnlar badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Maqolada O‘zbekiston xalq shoiri Usmon Azim she’riyatida metaforalarning namoyon bo‘lishi, ijodkorning o‘ziga xos bo‘lgan ma’no ko‘chish uslublari haqidagi xulosalar shoirning bir qancha she’rlari tahlili asosida yoritib berilgan. She’riy misralarda kelgan metaforalarni kognitiv va semantik tahlil qilishga oid ma’lumotlar yoritilgan.*

Kalit so‘zlar: *metafora, poeziya, tahlil, idrok, kongnitiv bilim, semantik tahlil.*

Annotation. *This article discusses the distinctive characteristics of metaphors, their classification, their role in the perception of ideas, the unique features of metaphors in poetic texts, and their significance. When conducting linguistic analysis of poetic works, it is essential to identify lexical units where the emotional-expressive semantic components of metaphors are prominently realized. These metaphors, as one of the lexical units demonstrating the poet's skill through language use, should be examined to determine how they serve the artistic and aesthetic purpose of poetic texts. The article explores the manifestation of metaphors in the poetry of Usman Azim, the People's Poet of Uzbekistan, drawing conclusions about the author's unique methods of semantic transfer based on the analysis of several of his poems. It also provides information on the cognitive and semantic analysis of metaphors found in poetic verses.*

Keywords: *metaphor, analysis, perception, cognitive knowledge, semantic analysis.*

Til millatining fikr almashuv quroli sifatida ijtimoiy vazifa bajarishi barchamizga ma’lum. O‘zbek tilining bugungi taraqqiyotida nafaqat tilshunos olimlarimiz, balki yozuvchilarimiz, shoirlarimizning ham xizmatlari beqiyos. Til

taraqqiyotidagi ko‘pgina masalalarni ilmiy-nazariy asoslash va ulani ijtimoiy ta’sir qildirish orqali ularga yechim topilib kelinmoqda. Tilshunoslikka yangi sohalarining kirib kelishi tilimiz leksikasini, uning grammatik qurilishini yanada chuqurroq va har tomonlama tadqiq qilish vazifasini qo‘ydi.

O‘zbek tilining lingistik manbasida asosiy o‘rin egallagan metaforalar haqida ma’lumotlar to‘plash va tadqiq qilishga alohida e’tibor berilmoqda. Ma’no ko‘chish masalalari har bir davr uchun dolzarb bo‘lib kelgan. Shu bois, buyuk ijodkorlarning ilmiy-madaniy merosi, milliy tilning boshqa tillar bilan munosabati, lug‘aviy birliklar orqali olamni bilish va idrok qilish, til egasi tafakkuri, idroki, qadriyatlarining aks etish ko‘lamini tadqiq etish dolzarblik kasb etmoqda.

Zamonaviy tilshunoslikning yetakchi va yangi yo‘nalishlari sifatida rivoj topgan sohalardan semasiologiya va lingvokognitologiya o‘zbek tilshunoslari tomonidan monografik tarzda o‘rganish bo‘yicha qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. O‘zbek tilidagi metaforalarning tadqiqiga doir ilmiy ishlar M.Mirtojiyev, N.Mahmudov, Sh.Safarov, M.Yo‘ldoshev, D.Xudoyberganova va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Metaforani tilshunoslik nuqtai nazaridan o‘rganish, uning til tizimidagi o‘rni, tuzilishi va semantikasini aniqlash borasida ko‘pgina tadqidotlar olib borilgan. Metaforaning asosiy vazifasi—bu til birliklari(so‘z,birikma)ning o‘zining odatiy denotativ ma’nosidan chetlanib,boshqa bir tushuncha yoki predmetni ifodalash uchun qo‘llanishidir. U ko‘pincha tasavvurni, tafakkurni va hissiyotlarni ifodalashda qo‘llaniladi. Metafora tushunchalarni anglashni va tasavvur qilishni osonlashtiradi. Metafora yordamida abstrakt va murakkab tushunchalar aniqroq va tasviriyroq tarzda ifodalanadi. Metaforalar, o‘zining leksik xususiyatidan kelib chiqib, tilning nozik jihatlarini ifodalovchi stilistik vositadir. Leksik tizimda metaforalarning ishlatilishi yangi so‘zlar va iboralar yaratish, mavjud so‘zlarga yangi ma’nolar yuklash orqali tilni rivojlantiradi.

Metaforada, odatda voqelik yoki kechinmani badiiy ifodalashda moddiy materialni umumlashtirishga, konkret predmet yoxud tushunchalarning mavhum tasavvurga o‘tish jarayoni aks etadi. Bu jarayonda shoirning badiiy niyati, tafakkuri ko‘lami, estetik baholash darajasi oydinlashadi.

She’riy asarlarni lingvistik tahlil qilish jarayonida ijodkorning tildan foydalanish mahoratini namoyon etadigan, emotsional-ekspressiv ifoda semalari qavariq holda reallashgan leksik birliklarni aniqlash va ular adibning badiiy-estetik maqsadiga qay darajada xizmat qilgani haqida mulohaza yuritish talab qilinadi. Biz ushbu maqolamizda Usmon Azim she’rlari orqali metaforalarning yuzaga kelishi va idrok qilinishi haqida mulohazalar keltiramiz. Usmon Azim she’rlarida shoirning jo’shqin tuyg‘ulari harakatga tushadi, shoir har bir she’rida bitta obrazni jonlantirib, o‘z tuyg‘ularni, kayfiyatini unga ko‘chiradi. U xoh jonsiz predmet bo‘lsin, u xoh tabiatning bir bo‘lagi bo‘lsin, shoir unga jon berib, harakatga keltiradi.

Usmon Azim she’riyatida tabiat unsurlarini qo‘llash orqali o‘ziga ramz va obrazlar kashf etadi. She’riy san’atlardan o‘xshatish, jonlantirish, sifatlash, takror kabi she’riy san’atlar faol qo‘llanilgan bo‘lib, ular betakror poetik manzaralar hosil

qiladi, muhim vosita sifatida she’rlarda badiiy-estetik ta’sirchanlikni oshirishga, turli ma’no nozikliklarini ifodalashga xizmat qiladi. She’riyatda bu vositalarni qo‘llash bilan shoir tasvirlanayotgan birlikni she’r o‘qiyotgan kitobxonning ichki olamiga olib kiradi, uning kechinmalari, his-tuyg‘ulari bilan tanishtiradi.

Metaforalar she’riy asarlarning tez va qulay anglanishiga yordam beruvchi lisoniy vosita hisoblanadi. Ijodkor shoirlarimiz bu vositadan unumli foydalanadilar. Bunday birliklar lingvokognitiv jihatdan muayyan vazifalarni bajarishga moslangan bo‘ladi. Shuningdek, metaforalar semantik va kognitiv jihatdan alohida xususiyatlarga ega bo‘ladi. Zamonaviy lingvokognitologiya fanida metaforaga tushuntirish, baholash, qabul qilish va idrok etish kabi psixik jarayonlarning asosi sifatida qaraladi. Inson metafora yordamida o‘z fikrini bayon etibgina qolmay, ularning turli xil konnotatsion imkoniyatlaridan foydalanadi, shuningdek, metafora orqali fikr yuritadi, metaforalar yordamida o‘zi yashab turgan olamni idrok etadi.

Metaforalar bizga qabul qiluvchining ongida mavjud bo‘lgan dunyoning lingvistik ko‘rinishini o‘zgartirishga, yaxshi tanish bo‘lgan hodisalarni yangicha toifalar bilan tanishtirishga yordam beradi. Metaforalarning inson ongida idrok etilishi bu kongnitiv jarayon bo‘lib bunda insonlar kongnitiv ongida bilimlarning mavjudligidan dalolat beradi. Masalan, *vaqt- oqar daryo* metaforasi insonlar tafakkurida vaqtning oqar daryo singari tinmas, chegarasiz ekanligi shaklida idrok etiladi.

Usmon Azimning asarlari ko‘plab kitobxonlarning ko‘nglidan joy olganligi sababli zamonaviy o‘zbek sheriyaatidagi asosiy nomlardan biri sifatida joy ola bildi. Shu sababli biz maqolamizga “Bir parcha osmon” va “Saylanma” asarlarida qo‘llangan she’rlarni obyekt sifatida tanlandik va undagi metaforalar tahlilga tortildi. Tanlangan materiallar maydon nazariyasi metodi asosida tasniflandi, muammoni o‘rganishda lingvokognitiv tahlil usullaridan foydalanildi.

Usmon Azim - zamonaviy o‘zbek she’riyati vakillaridan biri bo‘lib uning ijodida metaforalarning o‘rni beqiyosdir. Uning she’rlari qay mavzuda bo‘lmasin, qay obraz tasvirlanmasin, unda shoirning alamlari, o‘kinchlari, eng asosiysi insonning azaliy og‘riqlari, abadiy g‘ussalari aks etadi. Usmon Azim ijodini o‘qir ekanmiz, shoir yaratgan har bir obrazdan zavqlanamiz, tashbehlar qalbimizga hayrat soladi. Usmon Azim she’riyati metaforalarga boy. Badiiy nutqda shoir tomonidan hosil qilingan metaforalar poetik matnning badiiy-estetik qimmatini oshiradi. Shoir qo‘llagan metaforalarida ba’zan o‘xshatishlarni ham uchratishimiz mumkin. Bunda “o‘xshatilgan narsa” emas, “o‘xshatiladigan narsa” yangilik ekani bilan o‘ziga xosdir. Misol uchun quyidagi misradagi birkmalarni ko‘rishimiz mumkin.

Shavqat yo‘qdir g‘ussa ro‘zida,

Bo‘ldi. Ketdim. Qolmadi sabr.

Tashqarida asfalt ustida

Behush yotar sovuq dekabr [Usmon Azim, 1995: 31].

Bu o‘rinda shoir “*behush yotar sovuq dekabr*” metaforik sifatlashidan foydalanadi, tashqarida asfalt ustida sovuq dekabrning behush yotgani tasvirlanadi.

Shoir “sovuq dekabr”ni ya’ni sovuq ob-havo bo‘ladigan dekabr oyi so‘z birikmasini “behush” so‘zi orqali jonlantiryapti. Personifikatsiya metaforaning hosil qiluvchi ma’noning jonli referenti bilan xosila ma’noning jonsiz referenti o‘rtasidagi qiyosga, o‘xshashlikka asoslangan ko‘rinishidir [Mirtojdiyev, 2010: 98].

Namxushgina tumandan yana

Kichraymish bu dunyo qafasi.

Muzladingmi, sharfni ol, mana,

Shamollama, mana, nafasim. (yuqorida keltirilgan asar)

“*Namxush tumandan dunyo qafasi kichraygani*” –bu metaforik birikma, shoir “nafasi”ning shamollab qolishidan cho‘chib, sharf uzatmoqda. “Nafas” so‘zi orqali “jonlantirish” san’ati yuzaga kelmoqda. Bundan tashqari, “namxushgina tuman” metaforik birikmasi sinestezik metaforaga ham misol bo‘la oladi.

Usmon Azim she’rlarida qo‘llagan ma’no ko‘chish turlari orqali aytmoqchi bo‘lgan fikrini chiroyli pardalar bilan o‘rab, o‘quvchini fikrlashga, mushohada qilishga undaydi. Bu tarzda lingvistik birliklarni paydo qilish she’riy matnning badiiyatini oshiradi.

Vaqt kelar - dunyoning boqchalaridan

Tutunday tarqaydi o‘lik xitoblar.

Zamonning yuksak did tokchalaridan

Yiqilib tushadi yolg‘on kitoblar [Usmon Azim, 1995: 131].

Shoirning ijtimoiy mavzudagi she’rlaridan biri bo‘lgan ushbu she’rda “o‘lik xitoblar”, “yuksak did tokchalari”, “yolg‘on kitoblar” kabi metaforalar qo‘llangan. Usmon Azim bir kun kelib odamlar yuksak did sohibi bo‘lgan pallada haqiqat yozilmagan kitoblar tokchalardan qulashi haqida fikr yuritgan va buni metaforik birliklar orqali ifodalagan. O‘lik xitoblar tutun singari yo‘q bo‘lib ketadi, dunyoda faqat haqiqat qoladi. Bu misrada ham shoir ajoyib ma’no ko‘chishni amalga oshirgan. *Xitob* so‘zini personifikatsiyani ifodalovchi *o‘lik* so‘zi orqali jonlantirgan, ya’ni *yo‘q bo‘lgan, ma’nisiz xitoblar* demoqchi bo‘lgan.

Vujudimda bezovta tashvish-

She’r bo‘yini ufurgan havo.

Ruhimdagi so‘ngsiz o‘zgarish-

Navo!Navo!..Tushkunsiz navo-

Dard oralab yo‘qlikka yetish [Usmon Azim, 2022: 6].

Vujudimda bezovta tashvish. Bu yerda shoir o‘zining ruhiy holatini obrazli tarzda ifodalaydi. “*Vujudimda bezovta tashvish*” — bu nafaqat oddiy tashvish, balki butun tanani qamrab olgan, ich-ichidan bezovta qiluvchi tashvishdir. Bu tashvish faqatgina ongni emas, balki butun vujudni egallagan, ya’ni hissiyotlar kuchli ekani ifodalangan.

- “vujud” va “tashvish” o‘rtasidagi uyg‘unlik tashvishning faqat aqliy emas, balki jismoniy sezilishini ko‘rsatadi.

- “tashvish” oddiy holat sifatida emas, balki butun mavjudotga singgan bir tuyg‘u sifatida tasvirlanadi. Ichki iztirob, ruhiy notinchlik – bu hissiyotlar orqali hissiy tafakkur uyg‘otiladi.

She’r bo‘yini ufurgan havo. Bu misra g‘oyat obrazli va she’riy. “She’r bo‘yini ufurgan havo” deganda, xuddi havo qandaydir ma’naviy kuch bilan to‘lgan, she’rning o‘zi esa o‘sha havodan nafas olayotgandek tasvirlanadi.

• Personifikatsiya (jonlantirish): She’r “bo‘yini ufuradi” — bu orqali she’r jonlantirilgan. She’r ham tirik mavjudot kabi tasvirlangan.

• Obraz: Havo — ruh, ilhom, ehtiros timsoli. She’r ana shu ilhomli havodan kuch olib, hayotga kiradi. Bu ifoda nafaqat she’riyat haqida, balki uning qanday yaratilishi, qanday ruhiy holatdan paydo bo‘lishini obrazli ifodalagan.

Bu ikki misra orqali shoir ruhiy bezovtalik va she’riy ilhomning hayotga kirishi jarayonini obrazli va badiiy uslubda ko‘rsatgan. Tashvish - she’rga ilhom bo‘luvchi ichki og‘riq sifatida, havo esa - she’rning hayotga nafas olish manbai sifatida tasvirlangan. Bu misrada go‘zallik hissiyotlar chuqurligi, obrazli ifoda va insoniylashtirish san’ati orqali yuzaga chiqadi.

Xulosa qilib quyidagi fikrlarni aytishimiz mumkin:

- metaforalar she’riy asarlarni lingvokognitiv jihatdan aniqlashtirib, unga o‘zgacha ruh berib, matndagi ifodalanayotgan fikrni konnotatsion jihatdan ifodalashga, shuningdek, turli xil badiiy san’atlarni hosil qilishda, obraz karakterining o‘ziga xos ayrim jihatlariga ishora qilishga xizmat qiladi.

- metaforalar xalq tafakkuri mahsuli bo‘lib, ularda nafaqat xalqning tili, urf-odatlarini, qadriyatlarini, balki hayot va olam borasidagi qarashlarini ham aks ettiradi. O‘zbek tilidagi metaforalarga e’tibor qaratsak o‘zbek xalqiga xos fazilatlar ufurib metaforalarda namoyon bo‘ladi.

- metaforalarni izchillik asosida kognitiv tahlil qilish shu xalq vakillarining ma’lum bir tushuncha, olam va borliq haqidagi tasavvurlarini aniqlash imkonini beradi;

- she’riy matnlardagi metaforalarni estetik vazifa bajaruvchi unsur sifatida foydalanishimiz mumkin;

- she’riy matnlardagi metaforalar o‘quvchiga bir tushunchani boshqa bir tushuncha nomi bilan atab, uning xususiyatlarini ma’no ko‘chirish usullari yordamida kengaytib kelishini va bu orqali o‘quvchi she’riy matnni yaxshi tafakkur qila olishi, uning kongnitiv jihatlarini yanada anglay olishida yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. M.Mirtojiev. O‘zbek tili semasiologiyasi.- Toshkent:Mumtoz so‘z, 2010.-98b.
2. Safarov SH. Kognitiv tilshunoslik. – Jizzax: Sangzor, 2006.
3. Баранов А. Н. О типах сочетаемости метафорических моделей// Вопросы языкознания. –М.,2003.№2.–с. 73-79.
4. Лакофф Джонсон М. Метафора, которыми мы живём// Теория метафоры.–М., 1990.
5. Кубрякова Е. С. Эволюция лингвистических идей во второй половине XX века// Язык и наука XX века.–М.,1995.–с.144-238.
6. Usmon Azim.Bir parcha osmon.Toshkent: “Factor books”, 2022.-6 b
7. Усмон Азим. Сайланма. –Тошкент: Шарқ, 1995.- 131b.

8. Усмон Азим. Куз. –Тошкент: Фафур Фулом номидаги НМИУ, 2001
9. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=Iy7hDzQAAAAJ&citation_for_view=Iy7hDzQAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
10. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=aiGGU2YAAAAJ&citation_for_view=aiGGU2YAAAAJ:YsMSGLbcyi4C
11. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=gHnKX3EAAAAJ&citation_for_view=gHnKX3EAAAAJ:kNdYIx-mwKoC
12. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=oSSeGakAAAAJ&citation_for_view=oSSeGakAAAAJ:u5HHmVD_uO8C
13. https://www.researchgate.net/publication/371445473_O'zbek_tili_va_adabiyoti_jurnali.

MUNDARIJA

<i>Sirojiddinov Sh.</i>	O‘zbek tili – xalqaro maydonda!	
I SHO‘BA. O‘ZBEK TILSHUNOSLIGI VA TILSHUNOSLIKNING NAZARIY MASALALARI		
<i>Ashirboyev Samixon</i>	O‘zbek adabiy tilining tayanch dialektini belgilash yo‘lida	6
<i>Hakimova Muhayyo, Rahmatova Feruza</i>	O‘zbek tilida kognitiv metonimiya	11
<i>Juraqobilova Xamida</i>	She‘riy asarlarda kognitiv metaforalar shakllanishida lingvomadaniy omillarning ta‘siri	17
<i>Mustafayev Fizuli</i>	Kino dilində söz birləşməsi və qoşa sözlər haqqında	24
<i>Jabborov B., Sharipova S. Istamova SH.</i>	O‘zbek iboralarining milliy mentalitetni ifodalashdagi o‘rni	32
<i>Turdiboyev Tohir</i>	Yordamchi so‘zlar masalasiga doir ayrim qarashlar	37
<i>Abjalova Manzura</i>	Hozirgi o‘zbek tili leksik sathiga doir ba‘zi masalalar	42
<i>Sheronov Boyirboy</i>	Sintaktik sathda mazmuniy-shakliy nomutanosiblik haqida	50
<i>Madjidova Dilorom</i>	Современные методы и проблемы прикладного языкознания	54
<i>Tolipova Dildora</i>	Лакуны в узбекских письменных литературных источниках и проблемы их перевода	59
<i>Elova Dilrabo</i>	O‘zbek tilshunosligida uslubiy xoslanishni farqlash xususidagi qarashlar	67
<i>Abdullayev Jumanazar</i>	Yangi O‘zbekistonning mumtoz tilshunoslik merosi, zamonaviy lingvistik qadriyati	73
<i>Israilova Saodat</i>	Turk va o‘zbek tillarida rang bildiruvchi leksemalar semantikasi	84
<i>Kasimova Ziyoda</i>	Cho‘lponning “Kecha va kunduz” romanidagi frazeologik birliklarning badiiy-uslubiy tahlili	88
<i>Baxodirova Shaxlo</i>	Lakuna va realiya munosabati	92
<i>Hakimov Dilshod</i>	“Biz” va “o‘z” olmoshlarining o‘zbek tilidagi funksional maqomi: struktur-semantik tahlil	98
<i>Kurbanbayev Otabek,</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	107

<i>Qodirberganova Dilnura</i>	O‘tkir Hoshimov asarlarida so‘z birikmasining turlari	
<i>Allaquliyeva Qunduz</i>	Ixtionimlarning lingvistik va ekstralingvistik omillar asosida yangi ma’no ifodalashi	113
<i>Isoqulova Qunduz</i>	So‘z-gaplarning noverbal vositalar bilan ifodalanishi	117
<i>Ismayilli Ayshen</i>	Sintaktik yolla yaranan mikrotoponimlar xūlasə	122
<i>Davronova Zarnigor</i>	Sadriddin Ayniyning “Sudxo‘rning o‘limi” qissasidagi antroponimlarining kognitiv-semantik tahlili	132
<i>Muzaffarova Zarrina</i>	Metonimiyaning konseptual modellari	136
<i>Yusupova Aziza</i>	Metaforaning she’riy matnlarda aks etishi	140
<i>Mamarasulova Maftuna</i>	Fonosemantik g‘oyalarning rivojlanish bosqichlari	146
<i>Abdurasulova Dilnoza</i>	Ayollar nutqida konnotatsiya va murojaat birliklarining pragmatik xususiyatlari	151
<i>Soqiyeva Shirin</i>	Tilshunoslikda konseptni o‘rganishda til va madaniyatning o‘rni	157
<i>Abruyeva Zaxro</i>	O‘zbek tilidagi murojaat shakllarining konseptual tuzilishi	160
<i>Bovmanova Bashorat</i>	O‘zbek tilida halollik tushunchasining leksik-semantik ifodalanishi	164
<i>Jumaniyozova Charos</i>	Hajm-o‘lchov bildiruvchi sifatlarning nisbiylik xususiyati	168
<i>Xayrullayeva Ra’no</i>	Kichraytirish qo‘shimchalarining nutqdagi ahamiyati	172
<i>Tursunova Sojidxon</i>	“Fayzining amakisi” hikoyasidagi nutqiy akt vositasida ifodalangan ironiyalar tahlili	177
<i>Utegenova O‘g‘iloy</i>	Badiiy asarlarda tasviriy ifodalar	181
<i>Maxmudova Matluba</i>	Qaratqich kelishi semantikasiga doir ayrim mulohazalar	185
<i>Xolmamatova Sarvinozxon</i>	Konnotatsiya va konnotativ birliklarning	191

	o‘rganilganlik darajasi hamda turlari	
<i>Turg‘unboyeva Dilnoza</i>	Zamonaviy tilshunoslikda miqdor kategoriyasining o‘rni	199
<i>O‘ralova Nargiza</i>	Parsellyatsiya va metaforaning o‘zaro aloqadorligi	204
<i>Jabborova Aziza</i>	O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqidagi evfemizmlarning morfologik tahlili	209
<i>Odilova Dilobar</i>	Jahon tilshunosligida o‘xshatishlarning ilmiy tadqiqi	214
<i>Nazarov Qobilbek</i>	Turli tizimdagi tillarda soma komponentli maqollarning tasniflanishi	218
<i>Mullaboyeva Shirin</i>	Til, estetik tafakkur va didning paremiologik birliklarda ifodalanishi	226
<i>G‘aybullayev Erkinjon</i>	O‘zbek madaniyatini ifoda etishda lakunalarning roli: Cho‘lpon asarlari misolida	230
<i>Oripova Mavluda</i>	Sinestezik metaforalarning lingvomadaniy xarakteri:sinestezik metafora va milliy o‘ziga xoslik	240
<i>Otaxonova Sohiba</i>	Antroponimlarning internet va yangi media makonidagi o‘rni	245
<i>Shodmonaliyeva Yulduz</i>	Modallik bilan tasdiq-inkor kategoriyasining o‘zaro munosabati	250
<i>Sobirova Maftuna</i>	Konchilik terminotizimi va uning o‘zbek leksik tizimidagi o‘rni	256
<i>Umarova Shahzoda</i>	O‘zbek tilshunosligining kombinator lingvistikaning shakllanishidagi o‘rni	260
<i>Turg‘unova Maftuna</i>	Til taraqqiyotida kognitiv tilshunoslikning o‘rni	270
<i>Muratova Nafisa</i>	Tilak va tabrik nutqiy aktida ekstralingvistik vositalarning o‘rni	274
<i>Murotov Hamro</i>	Reklama matnlarining tasnifi	280
<i>Normuminov Laziz</i>	Qo‘chqor Norqobil hikoyalarda xalqona so‘zlashuv, ibora va maqollarning qo‘llanishi	285
II SHO‘BA. AMALIY TILSHUNOSLIK VA LINGVODIDAKTIKA MUAMMOLARI.		

<i>Xolmanova Zulxumor</i>	Tilning ma’lumotlarni saqlash va yetkazish funksiyasi	289
<i>Qurbonova Munavvara</i>	Ontolingvistika va pragmalolingvistika munosabatida deyktik birliklarning o‘rni	297
<i>Ruzibaeva Nigoraxon</i>	Psychological needs in the language classroom	303
<i>Abdurahmonova Muqaddas</i>	Ментальные омонимы в когнитивной лингвистике	308
<i>Umurzoqova Marhabo</i>	Badiiy matnda ayol lisoniy shaxs tiplari xususida	317
<i>Abjalova Manzura</i>	O‘zbek tili multikorpusi – zamonaviy ta’limiy tizim	321
<i>Ruzmetova Novval</i>	Роль узбекских народных традиций в социокультурном развитии студентов	326
<i>G‘ulomova Nargiza</i>	Alisher Navoiy mualliflik korpusini yaratishda statistik ma’lumotlarning muhimligi	335
<i>Dedaxanova Muazzam</i>	Lingvistik ekspertizaning yuzaga kelishi va shakllanish tarixi	344
<i>Shamsiyeva Manzura</i>	Animatsion filmlarning aksiolingvistik jihatlari	347
<i>Xudaykulova Shaxnoza</i>	O‘zbek tili diskursida global qadriyatlarining aksiolingvistik integratsiyasi	353
<i>Ibragimova Sayyora</i>	Псевдонимы узбекских и русских писательниц: генезис, семантика и когнитивные особенности	357
<i>Tilabaev Kamil</i>	Благодарные: из эмоционального опыта изучения узбекского языка как второго	361
<i>Alimardanov Elyor</i>	Xorazm dialektal zonasining qipchoq shevali areallari	369
<i>Bozorova Sabohat</i>	Gazeta tili va publitsistik janrlarning lingvostilistik xususiyatlari	372
<i>Abduvoxidova Mavzuna</i>	Обучение грамматике в условиях коммуникативного подхода	377
<i>Mamadayupova Vasila</i>	Katta yoshdagilarning xorijiy til o‘rganishi	381
<i>Azizova Feruza</i>	Raqamli texnologiyalarning til evolyutsiyasiga	385

	ta’siri: XXI asrda yozma va og‘zaki muloqotning transformatsiyasi	
<i>Abdullayeva Roxila</i>	Xarakter ifodalovchi birliklarning freym tahlili	389
<i>Yusupova Shahzoda</i>	Suggestiv nutq ta’sirchanligini oshirishda sifatlarning o‘rni	393
<i>Mamirova Xayriniso</i>	Ko‘p ma’noli so‘zlarni qayta ishlashning gibridd modellari	398
<i>Nabiyeva Parvina</i>	Assotsiativ tezaurus: til tasviri va inson ongining modellashtirilishi	405
<i>O‘rinova Zarifa</i>	Iqtiboslarning intertekstual tezaurusda aks etishi	410
<i>Rayimjonova Matluba</i>	Rauf Parfi she’riyati leksikasini chastotali lug‘at asosida tadqiq qilish muammolari va yechimlari	414
<i>Turobova Nargiza</i>	Ulug‘bek Hamdam ijodining lingvopragmatik tahlilida presuppozitsiya	418
<i>Abdullajonova Madina</i>	“Fiziologik xatolar”ni disgrafiyadan farqlash masalasi	424
<i>Pulatova Umriniso</i>	Yoshlar slengining ayrim o‘ziga xos hududiy xususiyatlari	428
<i>Imomova Ismigul</i>	Dramatik matnlarda qo‘llanilgan barqaror birikmalar va maqollarning intertekstual ohang va mazmunini boyitishdagi roli	435
<i>Arolova Nafisa</i>	Til o‘zlashtirishda leksik portlash hodisasi	440
<i>Tursunboyeva Fayiza</i>	Korpus lingvistikasining diniy matnlardagi o‘rni	443
<i>Amrullayeva Mohinur</i>	O‘zbek tilidagi ayrim fe‘l-atvor frazemalarining semantik tasnifi va uslubiy xususiyatlari	450
<i>Mirnosirova Dilbar</i>	Bolalar verbal assotsiatsiyalarining ayrim sintaktik xususiyatlari	454
<i>Aminova Zilola</i>	Darsdan tashqari mashg‘ulotlarda o‘zga tilli o‘quvchilarning nutqini o‘stirish	462
<i>Muratova Ademi</i>	Multilingualism and bilingualism in turkic-speaking countries: contemporary challenges and development prospects	466
<i>Umurzakova Zuxraxon</i>	Ona tili darslarida interaktiv raqamli resurslarni tatbiq etishning didaktik qulayligi	472
<i>Maxmudjonova</i>	Tilshunoslarga bog‘lab berilgan tomorqa...	477

<i>Nargizaxon</i>		
III SHO‘BA. MADANIYATLARARO MULOQOT VA O‘ZBEK TILI TARAQQIYOTI		
<i>Uluqov Nosirjon, Solixodjayeva Xavasxon</i>	O‘zbek sayillari va ayrim turk bayramlarining etnolingvistik hamda lingvokulturologik tahlili	481
<i>Mirzodjanova Malika</i>	Сравнительный семантический анализ употребления английских “over”, “above” и их таджикских эквивалентов	489
<i>Komilova Gavharoy</i>	Nutq tadqiqida yangi yondashuvlar	484
<i>Pulatova Zamira</i>	Роль межкультурной коммуникации в процессе изучения языков	497
<i>Moldokulova Elina</i>	Сохранение узбекской культурной идентичности через язык и традиционный костюм в эпоху глобализации	501
<i>Yo‘ldoshxonov Javohirbek</i>	Микротопонимы как ономастическая реалья: сравнительный анализ ташкента и лондона	505
<i>Abduqodirova Zebo</i>	The role of lingvocultural competence in the translation of specialized ecological texts. (English and Uzbek languages)	509
<i>Otamirzayeva Sug‘diyona</i>	Teaching legal english in uzbek context: challenges of terminology	514
<i>Sayfiyeva Komila</i>	Fitonim komponentli o‘zbek va ingliz maqollarining madaniyatlararo qiyosiy tadqiqi	521
<i>Madjidova Maftuna</i>	Лингвосоматические единицы которые характерные для арабской культуры	529
<i>Xasanova Sohibjamol</i>	Ingliz va o‘zbek tillarida “yaxshilik” va “yomonlik” kategoriyalarining lingvokulturologik tahlili	534
<i>Lafasova Mavjuda</i>	Xorij tilshunosligida o‘xshatishlar tadqiqi	539

<i>Olimova Mushtariybonu</i>	O‘zbek va ingliz xalq maqollaridagi “omad” va “omadsizlik” konseptlarining qiyosiy tahlili	544
IV SHO‘BA. O‘ZBEK TILINING XORIJDA O‘QITILISHI VA O‘ZARO HAMKORLIK MASALALARI		
<i>Ahmet Akalin</i>	Kültür taşıyıcısı olarak özbek dilinin diplomatik fonksiyonu	549
<i>Rahmonqulov Abdunazar</i>	O‘zbek va tojik tillari interferensiyasi haqida	555
<i>Rafibayeva Nasiba, Mingboyeva Oypari</i>	Лингвистика и страноведческий аспект в преподавании иностранного языка	559
<i>Xakimova Mavzunadjon</i>	Лингвистическое табу и стратегия эвфемизации в таджикском и английском языках	563
<i>Musurmankulova Shaxribon</i>	Türk tiliga xos ayrim frazemalar tahlili	569
<i>Xodjayeva Mashhura</i>	Влияние глобализационных тенденций на методику обучения иностранным языкам	576
<i>Erkaboeva Khavojon</i>	Translation studies and the internationalization of the uzbek language	581
<i>Axmedova Niluzar</i>	Emotsional leksikaning semantik-pragmatik talqini: ingliz va o‘zbek tillari misolida	584
V SHO‘BA. TIL TARIXI VA TURKIY TILLAR TADQIQOTLARI		
<i>Tanju Seyhan</i>	Ali şir Nevâyî ve üslubunda fiillerin yeri	589
<i>Abdushukurov Baxtiyor</i>	O‘zbek tilining tarixiy takomili va buguni	604
<i>Farhad Rahimi</i>	Nezrali’nin çağatay türkçesi sözlüğünün yanlışları üzerine II	611
<i>Vahidə Cəfərzadə</i>	Mustafa Zəririn “Siyərün-nəbi” əsəri haqqında bəzi qeydlər	640

<i>Muhammadiyeva Dilafro ‘z</i>	“Boburnoma” parallel korpusini yaratishdagi tarjima tamoyillari	650
<i>Bo‘ronov Anvar</i>	Poloves-qipchoq tillari maishiy leksikasi milliy identifikatsiyalash mezoni sifatida	657
<i>Xo‘janiyazova Shahnoza</i>	Alisher Navoiyning “Sab’ai sayyor” asaridagi idish-tovoq nomlarining leksik-semantik xususiyatlari	665
<i>Xolmurodova Mushtariy</i>	“Nasoyim ul-muhabbat” asaridagi tibbiy terminlar tahlili	670
<i>Mirzayeva Ulker</i>	Yunan manbələrində işlənən Azərbaycan antroponimlərinin leksik-semantik təhlili	676
<i>Babazade Rahshane</i>	Mustafa Zəririn “Yüz hədis və yüz hekayə” əsərində zərflər	684
<i>Yodgorov Hamid</i>	“Qo‘noq” umumturkiy leksemasining etimologiyasi	697
<i>O‘razova Iqbol</i>	Frazemalar kognitiv semantikaning o‘rganish obykti sifatida	701
<i>Azizzade Turkan</i>	R.O.Şor Yafəs-türk dil əlaqələri haqqında	705
<i>Saygin Muhterem</i>	Klasik Türk Edebiyatının Doğu Sahasında Sevgili İçin Kullanılan Bir İfade Körke Bay (Körkke Bay, Görge Bay)	711
<i>Meryem Hamişoğlu</i>	Türkçenin ilk sözlüğü <i>Dîvânu lugâti't-türk</i> 'ten özbek türkçesine bitki adları	718
<i>Bakirov Qudratillo</i>	Turkiy dunyoda vaqt tushunchasi va uning o‘rganilishi	734
<i>Sattorova Shahnoza</i>	O‘zbek va turk tillarida bir xil etimologiyaga ega o‘simlik nomlarining qiyosiy tahlili	739
<i>Maqsudova Feruza</i>	Muqaddas qadamjo nomlari – onomastika sohasining o‘rganish obykti sifatida	745
<i>Azizova Nilufar</i>	“Devonu lug‘otit turk”dagi o‘z qatlamga oid ijtimoiy munosabat semali leksemalar	750
<i>O‘tkirbek Muhammad Sobir</i>	Arba’in she’rlarda “hayit” so‘zining lingvopoetik timsollari	756
<i>Naimaxon Siddiqova</i>	Eskirgan so‘zlarning eskirmagan ma’nolari	760
<i>Qasimova Sema</i>	The stylistic, linguistic and psycholinguistic analysis of femalemale forms of address in the texts	766

	of the book of “Dede Qorqud”	
<i>Roza Turdiyeva</i>	O‘zbek, qoraqalpoq va ingliz tillaridagi maqollarda zoonimlarning umumiy va milliy xususiyatlari	775